

"GEOGRAFIYA – KELESHEKKE KÓZ-QARAS"

atamasındağı Respublikalıq kólemdegi ilimiyy-teoriyalıq konferenciya

QORAQALPOG`ISTON HUDDUDIDA O`SIMLIK QATLAMINING JOYLASHISHI VA RIVOJLANISHI

M.Ya.Radjapov

katta o'qituvchi, Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

G.Eshpanova

geografiya va iqtisodiy bilim asoslari yo'naliishi talabasi, Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

A.S.Jiyemuratov

geografiya va iqtisodiy bilim asoslari yo'naliishi talabasi, Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika institute

Резюме: Maqolada Qoraqalpog`iston hududidagi o`simlik qatlaming joylashishi va rivojlanishi haqida fikr yuritilgan.

Tayanch so`zlar: Tabiat, o`simlik qatlami, tabiiy sharoit, del`ta, tuproq qatlami, namlik darajasi, sho`rlanish darajasi, to`qay massivlari.

Резюме: В статье рассматривается размещение и развитие растительного покрова на территории Каракалпакстана.

Ключевые слова: Природа, природные условия, растительность, дельта, почвенный слой, уровень влажности, уровень засоленности, тугайные массивы.

Summary: The article discusses the placement and development of vegetation cover in the territory of Karakalpakstan.

Key words: Nature, natural conditions, vegetation, delta, soil layer, humidity level, salinity level, tugai massifs.

Qoraqalpog`iston hududida o`simlik qatlaming joylashishi va rivojlanishi, uning umumiyy tabiiy sharoitlariga, ayniqsa bizning respublikanining tuproq qatlaming namlik va tuproqning sho`rlanish darajasiga bevosita bog`liq.^{1 2}

Amudaryo hozirgi del`tasining juda ko`p bo`limini botqoqli-o`tloqli tuproqlardagi qamishzorlar va to`qaylar egallaydi. Bu o`simliklar egallab turgan territoriya Orol dengizi qirg`og`iga tutashib, Bo`rlitov ustyurtligida joylashgan deyarli teng tomonli katta uchburchak formasiga ega.

Qamishzorlar, odatda suv olib ketuvchi botiq erlarga moslashgan bo`ladi, bu joylarda qamishdan boshqa ekan, urug`, kedirlar ham keng tarqalgan.

¹ Коровин Е.П. Растительность Средней Азии и Южного Казахстана. Кн.И. Ташкент, АН УЗССР, 1961.

² Дробов В.П. Тугайная древесная и кустарниковая растительность Каракалпакской АССР. Мат.по произв. силам Узбекистана, вып.И. Каракалпакская АСР. Ташкент, АН УЗССР, 1950.

"GEOGRAFIYA – KELESHEKKE KÓZ-QARAS"

atamasındağı Respublikalıq kólemdegi ilimiyy-teoriyalıq konferenciya

Zaxsiz quruq erlarga to`qay o`simliklari moslashgan bo`lib unda bo`yan, yantoq, bug`doyiq, qizil kendir, urug`, ajiriq, yulg`un, qorabaroq, sho`ralar bilan bir qatorda to`qayning yuqori yarusida to`rong`il, jiyda va tollar uchraydi.

To`qaylarning asosiy massivlari Shabboz, Boday, Nazarxon, Nurumtubek va Shortanbaylarning atrofida to`plangan. Ayrim joylarda keng maydonni egallagan yulg`unzorlar ham uchraydi.

Amudaryo del`tasining g`arbida Ustyurt, sharqida Qizilqum bilan chegaradosh bo`limlarining er osti suvlari bir qancha chuqurlikda bo`lganlikdan, bu territoriyalarga yulg`un, yantoq, quyonsuyak, temirtikanak, itsiygak o`xshash o`simliklar xarakterli.

Qoraqalpog`iston Qoraqumining ko`pchilik hududida asosan oq saksovul va rang ko`p uchraydi. Ulardan boshqa chalov, juzg`un, qum akatsiyasi, juvsan, govrak, arpag`an, lolagul, qum pechak, boyalish, qizilcha va saksovullar, tuprog`ining tarkibida tuz ko`proq uchrovchi hududlarda toshbuyurgin va sarsazanni ko`ramiz.

Qoraqalpog`iston Qizilqumining shimol bo`limidagi qadimgi allyuvial qayirlari uchun har er, harerde juvsan, qora saksovul, yulg`un yoki sho`ra bilan aralash o`suvchi buyurginlar xarakterli.

Qoraqalpog`iston Ustyurtida buyurgin, juvsan va boyalish uchraydi. Ular o`zaro birikib, odatda aralash turda o`simliklar guruhini (komplekslarini) paydo qiladi. Ulardan boshqa Qoraqalpog`iston Ustyurtida, saksovul, kayrovuq, qoramiq, oq yulg`un, tereskan, karmak, tosh buyurgin kabi buta o`simplari uchraydi. Shuningdek chitir, abelek, qo`ng`rbosh, arpag`an, buzovbosh, bug`doyiq, seta va boshqa shunga o`xshash bir yillik o`simliklar ham o`sadi.

Qoraqalpog`iston Ustyurti umumiy olganda tekislik territoriyalarga, bir xil tuproq tarkibi va keskin kontinental iqlimiga ega bo`lishiga qaramasdan uning shimoldan janubga cho`zilib joylashishi sababli o`simpliklarning soni va hajmi bo`yicha uning ayrim hududlari bir-biridan ajralib turadi.

Masalan, Qoraqalpog`iston Ustyurtining shimol bo`limida ko`pincha boyalish-buyurgin o`simpliklari guruhi uchraydi. Bu o`simpliklar egallagan maydon odatda 1-2 ming kvadrat metrdan ortmaydi. Bu joylarda juvsan boyalish bilan buyurginlarga qaraganda siyrak uchrashadi. Shuningdek Qoraqalpog`iston Ustyurtining markaziy bo`limi har xil juvsan buyurgin guruhlari bilan buyurginlarning ko`proq uchrashi xarakterli. Buyurginlar uning shimoli-g`arbiy bo`limida ko`p uchraydi. Ustyurtning Qoraqalpog`iston bo`limining janubi uchun buyurgin, govrak assotsiatsiyalariga kiruvchi o`simpliklar guruhlari xarakterli.

"GEOGRAFIYA – KELESHEKKE KÓZ-QARAS"

atamasındağı Respublikalıq kólemdegi ilimiy-teoriyalıq konferenciya

Qoraqalpog`iston Ustyurtining deyarli barcha hududida har joy har joyda orol ko`rinishida saksovul massivlarini uchratamiz. Saksovul massivlari ayniqsa, Churuk qudug`ining shimoli-sharqida, Borsakelmas botig`ining shimoli-g`arbida va Qorabovur tepaligining janubida juda ko`p.³

Qoraqalpog`istonning er yuzasida balandligi va joylashgan yo`nalishi bo`yicha har xil orol-orol ko`rinishida bir necha qoldiq usturytliklar va «tog`lar» bor. Ularning eng kattalari: Sulton Uvays tog`i, Beltov, Qusxanatov, Qiziljar, Bo`rlitov, Qirantov va b. Ular er osti va er usti suvlariga boy Amudaryoning del`tasida yoki juda quruq sharoitga ega Qoraqalpog`iston Qizilqumida joylashgan, ular atrofidagi tekislik territoriyadan ajralib, o`zgacha o`simliklar dunyosiga ega. Ularda juvsan, kayrovuq, boyalish, tog` piyazi, govruk, tog` pechak, tog` juzg`ini, qirqbo`g`in, buzovbosh va izen o`sadi.⁴

Amudaryo del`tasidagi qamishzorlar bilan to`qaylar egallagan maydon sharq va g`arb tomonidan suvg`orilib ekiladigan hududlar Bilan o`rab olingan. Bu kishilik jamiyatining ko`p yillik xo`jalik xizmati bilan barpo bo`lgan Qoraqalpog`istonning haqiqiy voha bo`limi. Ular asosan o`tloqli va o`tloqlitaqirli tuproqlarda joylashgan.

Insonning ko`p yillar davomida xizmati Amudaryo del`tasidagi o`simliklar qoplaming bir qancha o`zgarishiga sabab bo`ldi. Vohaga xos hisoblanuvchi madaniy o`simliklarning ko`p sonli vakillari bor.

Qoraqalpog`istonda texnik ekinlardan paxta, donli ekinlardan sholi, jo`xori, arpa, bug`doy, tariq, moy beruvchi o`simliklardan: kungaboqar, kunjut, zig`ir, dukkakli o`simliklardan: mosh, loviya, beda, poliz ekinlaridan karam, bodring, qovun, qovoq, oshqovoq, pomidor, sabzi, kartoshka, piyaz, baqlajon, rediska, qalampir, sholg`om, turp, em-xashak ekinlardan - sudanka ekiladi. Mevali daraxtlardan Qoraqalpog`istonda uzum, olma, nok, shaftoli, o`rik, chiya, qorali, behi va b. keng tarqalgan. Dekorativ daraxtlar va buta o`simliklar ham (terak, oq tol, qora tol, gujum, tut daraxti t.b.) ayniqsa shahar va aholi punktlarda ahamiyatli o`rinni egallaydi. Bu ekinlar territoriyasining asosiy bo`limini paxta egallaydi. ekin maydonning kattaligi bo`yicha ikkinchi o`rinda bug`doy, sholi, jo`xori, makkajo`xori va beda turadi.

Har xil yovvoyi o`simliklar ekin maydonlarida, polizlarda, bog`larda va aholi punktlari joylashgan zonalarda uchraydi. Ularga pechak, mushukquyuq,

³ Алланиязов А.А., Викторов С.В., Пельт Н.Н. Экологические аспекты освоения пустыни Устюрт. Ташкент, «Фан», 1984.

⁴ Шербаев Б.Ш. Флора останцевых возвышенностей и низкогорий Каракалпакии. Ташкент, «Фан», 1978.

"GEOGRAFIYA – KELESHEKKE KÓZ-QARAS"

atamasındağı Respublikalıq kólemdegi ilimiyy-teoriyalıq konferenciya

bo`yan, suv o`ti, yantoq, kakra, bug`doyiq, qamish, oqbosh, takasoqol, qirqbo`g`in, ituzum, isiriq, changal va sho`raning bir necha turlari kiradi.

O`ziga xos o`simgiliklari bilan bo`z va qo`riq erlar ajralib turadi. Ularga hududning er osti suvining sathiga va tuproqning mineralizatsiyasiga qarab har xil o`simgiliklar (yulg`un, yantoq, qorabaroq, oqbosh, itsiygak, quyonsuyak, temirtikanak va b.) xarakterli.

Umumiyl olganda hozirgi vaqtgacha Qoraqalpog`istonda uchraydigan o`simgiliklar to`liq o`rganilib, sistemalashtirilib tamomlanmagan. Yuqori darajali o`simgiliklarning faqat 900 turi aniqlangan. Ularning 800 ga yaqin turi yovvoyi turlar hisoblanadi.⁵

⁵ Бондаренко О.Н. Определитель высших растений Каракалпакии. Ташкент, «Наука», 1964.